**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy tadqiqot ishida qishloq aholisi daromadiga tomorqa yer egalari tomonidan faoliyatga innovatsiyalarni jalb qilish manbalari yoki ularni o'zlashtirishi ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot, Samarqand viloyati Pastrod'om va Oqdaryo tumanlarida 587 ta tomorqa xo'jaliklarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomaga ma'lumotlaridan foydalanilgan. Omilli tahlil (Factor Analysis) modelidan foydalanilgan holda tomorqa yer egalari tomonidan "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" ko'rsatkichi ishlab chiqilgan. Tahlilda, oila daromadiga tomorqa yer egalari tomonidan "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" ko'rsatkichi va boshqa omillar ta'sirini iqtisodiy baholashda Tobit modelidan foydalanilgan. Natijada, "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" 1 foiz ( $***p<.01$ )likda statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning 1 koeffitsiyentga oshishi oila daromadini 1,566 mln. so'mga oshirishi ilmiy asoslangan. Olingan tahlil natijalar asosida, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tomorqa xo'jaligi faoliyati, innovatsiya, innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi, resurs tejankor, daromad, Omilli tahlil (Factor Analysis) model, Tobit model, qishloq xo'jaligi.

**Abstract:** In this scientific research, the influence of the sources of attracting innovations to the activity or their adoption by the landowners on the income of the rural population was analyzed. Using the Factor Analysis model, the indicator of "Innovation Adoption Index" of homestead land owners was developed. In the analysis, the Tobit model was used in the economic assessment of the influence of the indicator "Innovation Adoption Index" and other factors on family income. As a result, "Innovation Adoption Index" is statistically significant at 1 % ( $***p<.01$ ), its increase by 1 coefficient increases the family income by 1,566 million increase to sum is scientifically based. Based on the results of the analysis, scientifically based proposals were developed.

**Key words:** tomorqa activity, innovation, innovation adoption index, resource efficient, income, Factor Analysis model, Tobit model, agriculture.

**Аннотация:** В данном научном исследовании было проанализировано влияние источников привлечения инноваций в деятельность или их внедрения помещиками на доходы сельского населения. С использованием модели факторного анализа разработан показатель "Индекс внедрения инноваций" собственниками приусадебных земель. В анализе модель Тобит использовалась при экономической оценке влияния показателя "Индекс внедрения инноваций" и других факторов на доход семьи. В результате "Индекс внедрения инноваций" является статистически значимым и составляет 1 % ( $***p<.01$ ), его увеличение на 1 коэффициент увеличивает доход семьи на 1,566 млн сум прибавка к суммам научно обоснована. По результатам анализа были разработаны научно обоснованные предложения.

**Ключевые слова:** сельскохозяйственная деятельность, инновации, индекс внедрения инноваций, ресурсоэффективность, доход, модель факторного анализа, модель Тобит, сельское хозяйство.



## KIRISH

Qishloq aholisi bandligi, mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligi, ularning farovonligini ta'minlashda qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining qishloq xo'jalik sohasida doir bilim va ko'nikmalari, savodxonlik darajasiga hamda sohaga jalb qilinadigan innovatsiyalarga bog'liqdir [1]. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lgan aholi daromadini oshirishda ishlab chiqarish faoliyatiga innovatsiyalarni keng joriy etish, iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish [2], resurs yetkazib beruvchilar, mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega [3]. Ishlab chiqarish jarayonida resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsiyalardan foydalanish yoki ularning keng doirada joriy etilishida qishloq infratuzilma xizmatlariga ham bog'liqdir [4].

Dunyoda qishloq aholisining 1,5 milliardga yaqini dehqon xo'jaligi faoliyatidan kun kechirishi, ishlab chiqilgan innovatsiyalardan samarali foydalanish ma'lum darajada xo'jalik subyektlarining savodxonlik darajasiga bog'liq. Bunday holat, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish yoki qishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadini oshirishda mavjud innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularga iqtisodiy baho berish talab etiladi. Bugungi kunda, qishloq xo'jaligida inson kapitali sifatining asosiy tarkibiy qismlari qishloq xo'jaligining maxsus bilimlari, mustaqil ish tajribasi, iqtisodiy amaliyot bilimlari va ko'nikmalari, qaysiki tomorqa xo'jaliklari subyektlari tomonidan qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarga ta'sir ko'rsatadi [5]. Xususan, xo'jaligi subyektlarining bilim va tajribaga ega bo'lish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga o'z biznesini to'g'ri boshqarish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bozorda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Binobarin, qishloq xo'jaligi sohasida, menejment, moliyaviy menejment, kadrlar, marketing, iqtisodiy qonunchilik va xalqaro tajriba bo'yicha bilim darajasini oshirish va yangi ko'nikmalarni egallash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga, aholini keng jalb etishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o'tish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan to'liq axborot bilan ta'minlash, qishloq aholisining ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida o'zaro munosabati innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Biroq olis hududlarda mavjud infratuzilma xizmatlari, xususan, internet-aloqa tizimida mavjud muammolar ma'lum darajada aholining tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq innovatsion texnologiyalardan foydalanish yoki ulardan xabardor bo'lishni cheklash mumkin [6]. Bunday holda, qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan innovatsiyalardan foydalanish, qaysiki oila uchun bozor to'liq innovatsiyalar to'g'risida ma'lumot berishi mumkin. Xususan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va ilg'or ishlab chiqarish tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar dastlabki bosqichda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida shakllanadi. Bu borada, xo'jalik subyektlari tomonidan qanday turdagi yangi texnologiyani yoki resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishini bozorda talab va taklif belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi soha xodimlari yoki tomorqa yer egalariining ilg'or ishlab chiqarish tajribasi birgina ijtimoiy tarmoqlarda yoritilayotgan innovatsion texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan cheklanmaydi. Bu borada, qishloq aholisi o'rtasida kommunikatsion jarayon ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisi munosabatlarning mustahkamligi, tomorqa xo'jaligi faoliyatidan foydalanilgan innovatsiyalarning qishloqda keng joriy etilishiga sabab bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq yangi bilim yoki aholi savodxonligini oshirishda TV ko'rsatuvlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, aholini innovatsion texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Garchand, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish oila daromadi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek millatiga xos qarindosh-urug'chilik munosabatlarning ko'chli bo'lishi bir tomorqa yer egasi tomonidan foydalanilgan innovatsiyalarni ikkinchi bir tomorqa yer egasi tomonidan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin. Shu o'rinda, xo'jalik subyektlari o'rtasida ko'chli munosabat, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish yoki faoliyatga qo'llash bilan bog'liq bilim-ko'nikmaga ega bo'lishadi.

Olis qishloq hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq innovatsiyalarni tomorqa xo'jaliklarida qo'llanilishiga oila a'zolarining kamida bir nafar a'zosi oliy ma'lumotga ega bo'lishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq qishloqlarda oila a'zolarining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi bevosita oila daromadiga bog'liq bo'lib qolmoqda [7]. Bu borada, qishloq hududlarida, ayniqsa olis hududlarda agroxizmatlar markazlari yoki ilmiy maslahat guruhlar tashkil etilgan holda turli seminar-treninglar tashkil etilishi tomorqa yer egalariining bilim-ko'nikmalarini oshirishga ijobiy ta'sir etgan holda innovatsiyalardan foydalanishga undashi mumkin.

Biroq iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning olib borgan tadqiqot ishlariga ko'ra [8, 9, 10], tomorqa yer egalariining yoshi ma'lum bir yoshgacha innovatsiyalardan keng foydalanishga undasa, ma'lum yoshdan keyin yoshning oshib borishi ular tomonidan yangi bilim yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishga bo'lgan moyilligi pasayib boradi.



Umumiy olganda, tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi tomorqa yer egalari tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyatiga jalb qilingan innovatsiyalar oila daromadiga qay darjada ta'sirini iqtisodiy baholash orqali ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berishdan iborat.

Tadqiqotda, oila daromadiga tomorqa xo'jaligi faoliyatida foydalanilgan innovatsiyalarni o'zlashtirish manbalarini tahlil qilish va ularga iqtisodiy baho berishda Samarqand viloyatida qo'shni bo'lgan, biroq Zarafshon daryosi ikkiga ajratib turgan Oqdaryo va Pastdarg'om tumanlari qishloqlarida o'tkazilgan so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanildi. Ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlarning statistik tavsifi va tahlil usullari tadqiqot ishimizning 2-bo'limi, ya'ni "Material va metod" bo'limida keltirildi. Shuningdek, ushbu bo'limda tadqiqot ishida Omilli tahlil (Factor analysis) va Tobit modellardan foydalanilganligi keltirilgan. 3-bo'limda, ya'ni tomorqa yer egalari olingan so'rovnoma ma'lumotlar tahlil natijalari yoritilgan. Ilmiy tadqiqot ishida olingan natijalar asosida berilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ishning "Xulosa va taklif" bo'limida keltirilgan.

## MATERIAL VA METOD

Tadqiqot ishida Samarqand viloyat Oqdaryo va Pastdar'om tumanlarida 2023-yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanildi. Ijtimoiy so'rovnomada 587 ta tomorqa yer egasi yoki respondent ishtirok etgan bo'lib, ulardan 338 nafari yoki 57,6 foizi Pasdarg'om tumani tomorqa yer egalari hissasiga to'g'ri keladi.

Qishloqlarda oilalarning o'rtacha oylik daromad 3,305 mln. so'mni tashkil etib, qaysiki oilalarda minimum 1,6 mln so'm yoki maksimum 10,7 mln so'mni tashkil etadi (1-jadval).

### 1-jadval: O'zgaruvchilarning statistik tavsifi

O'zgaruvchilar	O'rtacha	Std. og'ish.	Min	Max
Oilaning o'rtacha oylik daromadi	3.305	1.609	1.6	10.7
Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi, (iui)	.38	.167	0	1
Innovatsiyalarni yaqin qarindoshidan o'zlashtirgan	.642	.48	0	1
Innovatsiyalarni qo'shnilardan o'zlashtirgan	.568	.496	0	1
Innovatsiyalarni TV ko'rsatuvlaridan o'zlashtirgan	.555	.497	0	1
Innovatsiyalarni bozordan o'zlashtirgan	.601	.49	0	1
Innovatsiyalarni agroxizmat markazlaridan o'zlashtirgan	.549	.66	0	1
Innovatsiyalarni ilmiy tadqiqot institutlaridan o'zlashtirgan	.465	.499	0	1
Innovatsiyalarni ijtimoiy tarmoqlardan o'zlashtirgan	.489	.5	0	1
Tomorqa ekin maydoni, (tem)	6.566	2.092	3	15
Oilaning asosiy daromad manbasi, (adm)	.608	.489	0	1
Oila boshlig'i ma'lumoti, (m)	2.147	.631	1	3
Oila boshlig'i yoshi, (yo)	47.109	7.32	27	60
Yosh2 (U-shaped)	2272.751	673.693	729	3600
Oila boshlig'i jinsi, (j)	.85	.357	0	1

Tomorqa yer egalari tomonidan tomorqa xo'jaligi faoliyatiga innovatsion texnologilarni joriy qilishda bilim-ko'nikmani yaqin qarindosh-urug'idan o'zlashtirish ko'rsatkichi 64,2 foizini tashkil etgan. Shuningdek, tomorqa yer egalari tomonidan tomorqa xo'jaligi faoliyatiga jalb qilingan innovatsiyalarning 56,8 foizini qo'shnilardan o'zlashtirgan. Tomorqa yer egalari tomonidan tomorqada foydalanilgan innovatsiyalarni faqat bir manbadan o'zlashtirmagan, ya'ni qaysiki ekin va/yoki chorva turi bilan bog'liq faoliyatga innovatsiyani qo'llashda turli manbalardan foydalanishgan. Umumiy olganda, tomorqa xo'jaligida o'simlikchilik yoki chorvachilik faoliyati bilan bog'liq innovatsiyalarni turli manbalardan o'zlashtirgan.



Tomarqachilik faoliyatidan keladigan daromad bevosita ekin maydonlariga bog'liq bo'lib, ekin maydonlarning oshishi faoliyatdan keladigan daromadni oshiradi <sup>[11]</sup>. Biroq tomorqa yer maydonlari hajmining oshishi tomorqa yer egalari tomonidan samarali foydalanilgan deb ayta olmaymiz. Statistik tavsifga ko'ra, respondentlarning o'rtacha tomorqa ekin maydoni 6,566 sotixni tashkil etgan. Shu o'rinda, tomorqa ekin maydonlari hajmining oshishi oila boshlig'i yoki a'zolarining qishloq xo'jalik faoliyatida band bo'lishga undaydi <sup>[12]</sup>. Biroq oilada oila boshliqlarining noqishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lishi, tomorqa xo'jaligi faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilishda asosiy investitsiya hisoblanadi <sup>[13]</sup>.

Tomorqa yer egalari tomonidan faoliyatga jalb qilingan innovatsiyalarni o'zlashtirish manbalari bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar bo'lib, ular bir umumiy xususiyat yoki ma'noni ifodalaydi. Bunday holda, Omil tahlil modeli yordamida yagona umumiy xususiyatni ifodalovchi indeks ko'rsatkich sifatida ifodalalash mumkin. Biroq Omil tahlil modelidan foydalanishda 3 ta asosiy test:

- 1) KMO (Kaiser-Meyer-Olkin Measure)  $\geq 0,50$  dan katta bo'lishi kerak <sup>[14]</sup>;
- 2) Bartlet test (Bartlett test,  $\chi^2$ )da umumiy xususiyani ifodalovchi o'zgaruvchilarimiz p-qiyamat=0,000 bo'lishi <sup>[15]</sup>;
- 3) Korrelyasion matrisada  $\text{Det} > 0,00001$  katta bo'lish <sup>[16]</sup> shartini bajarish lozim.

Omili tahlil natijasiga ko'ra, respondentlardan olingan so'rovnoma faoliyatda innovatsiyalarni o'zlashtirish manbalaridan hosil bo'lgan "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" ko'rsatkichi yuqoridagi har 3 ta asosiy test shartini qanotlantiradi. Ya'ni, tahlilda "Innoatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" ko'rsatkichidan foydalanishga dalolat beradi.

2-jadval: Umumiy xususiyatni ifodalovchi o'zgaruvchilar uchun omilli tahlil modeli test natijasi

№	Indeks	Shartlar va test natijalari		
		KMO $\geq 0,50$	p=0,000	Det $> 0,00001$
1.	Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi	0,874	0,000	0,582

Omili tahlil modeli taklif etgan indeks, ya'ni "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" 0 va 1 oralig'ida bo'lib, qaysiki tomorqa xo'jaligi uchun indeks ko'rsatkichi 1 ga yaqin bo'lishi, faoliyatga innovatsiyalarni o'zlashtirish manbasidan ko'proq foydalanishini ifodalaydi va aksincha.

Bog'liq o'zgaruvchi (Y) miqdor ko'rsatkichda, ya'ni oilaning o'rtacha oylik daromadi bo'lganligi uchun unga mustaqil o'zgaruvchi (X) qay darajada ta'sirini iqtisodiy baholashda Tobit modeldan foydalanildi <sup>[17]</sup>. Mazkur modelning matematik ifodasi quyidagicha ifodalaniadi <sup>[18]</sup>.

$$\rho_i^* = \beta_0 + \sum_{j=1}^i \beta_j x_{ij} + \varepsilon_i$$

$$\rho_i = \rho_i^* \quad 0 \leq \rho_i^* \leq 1$$

$$\rho_i = 0 \quad \rho_i^* < 0$$

$$\rho_i = 1 \quad \rho_i^* > 1$$

Bunda,  $\rho_i^*$  – ko'zda tutilmagan o'zgaruvchilar;

$\rho_i$  – bog'liq o'zgaruvchi;

$x_{ij}$  – mustaqil o'zgaruvchi;

$\beta_0$  – o'zgarmas;

$\beta_j$  – korrelyasiya vektor koeffitsiyenti;

$\varepsilon_i - \varepsilon_i \sim N(0, \sigma^2)$

Mazkur metoddan foydalanilgan holda oila daromadiga tomorqa xo'jaligi faoliyatida innovatsiyalarning o'zlashtirish indeksi qay darajada ta'sirini iqtisodiy baholashda "STATA-17" dasturlar paketidan foydalanildi.



## TAHLIL NATIJALARI

Olingan tahlil natijalariga ko'ra (3-jadval), oila boshlig'i va/yoki a'zolari tomonidan tomorqa xo'jaligi faoliyatiga jalb qilingan yoki ularni o'zlashtirish manbalari oila daromadining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**3-jadval: Tomorqa xo'jaligi faoliyatida innovatsiyalarni o'zlashtirish manbalarining oila daromadiga ta'sirini baholashda Tobit model tahlil natijasi**

Ta'sir omillar	Koef.	St.xato	t-qiyamat	p-qiyamat	[95% oraliqda]		Muh.
iui	1.566	.335	4.67	0	.907	2.225	***
tem	.131	.026	4.98	0	.079	.182	***
adm	.809	.117	6.92	0	.58	1.039	***
m	.632	.092	6.89	0	.452	.811	***
yo	.368	.08	4.58	0	.211	.526	***
Yosh2	-.004	.001	-4.78	0	-.006	-.002	***
j	.33	.152	2.17	.03	.032	.629	**
Constant	-8.128	1.819	-4.47	0	-11.7	-4.556	***
Var (e)	1.646	.096	.b	.b	1.468	1.846	

Mean dependent var	3.306	SD dependent var	1.611		
Pseudo r-squared	0.120	Number of obs	586		
Chi-square	265.631	Prob > chi2	0.000		
Akaike crit. (AIC)	1973.075	Bayesian crit. (BIC)	2012.435		

\*\*\* p<.01, \*\* p<.05, \* p<.1

Ya'ni, "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi"ning 1 koeffitsiyentga oshishi oila daromadini 1,566 mln. so'mga oshiradi va 1 foiz (\*\*\*) p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, tomorqa xo'jaliklarida ekin maydoning 1 sorixga oshishi oila daromadini 0,131 mln. so'mga oshiradi va 1 foiz (\*\*\*) p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Biroq oila boshliqlarining yoshi ma'lum bir yoshga borganda, undan keyin yoshning 1 yoshga oshishi oila daromadini 0,004 mln. so'mga kamaytiradi va 1 foiz (\*\*\*) p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Tomorqa xo'jaliklarida innovatsiyalardan foydalanish oila boshliqlari jinsiga va asosiy daromad manbasiga bog'liqdir. Qaysiki, oila boshliqlarining noqishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lishi, har oy kafolatlangan daromadga ega bo'ladi. Vaholanki, qishloq aholisining qishloq xo'jaligi faoliyati band bo'lishi, ayniqsa tomorqa xo'jaliklarida, ya'ni o'simlikchilikda yiliga o'rtacha 2-3 marta daromadga ega bo'lishi mumkin. Tomorqachilikda, aksariyat oila xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari oila a'zolari tomonidan iste'mol qilishadi, biroq faoliyatga innovatsiyalarni jalb qilinishi natijasida olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishga yo'naltiriladi.

Umumiy olganda, tomorqa yer egalari tomonidan tomorqachilikda innovatsiyalardan foydalanishi ekin maydonda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishi imkoniyatini beradi. Bu borada, qishloqlarda agroxizmat, o'quv seminar-treninglar innovatsion texnologiyalar, serhosil urug' va ko'chatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, resurs tejamkorligi to'g'risida ma'lumotlar bilan tomorqa yer egalari bilim-ko'nikma hosil qilish muhimdir. Shu o'rinda, imtiyozli narxlarda yoki imtiyozli kreditlar asosida innovatsion resurs tejamkor texnologiyalar yetkazib berilishi, qishloq aholisi bandligi va oila daromadini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi faoliyatining barqaror rivojlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradi. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlashda faoliyatda band bo'lgan ishchi-xodimlarning bilim-savodxonlik darajasiga bog'liq bo'lib, faoliyatga jalb qilingan innovatsiyalardan samarali foydalanish yoki yangi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatini tezlashtiradi.

Samarqand viloyati Pasdarg'om va Oqdaryo tumanlari qishloq aholisi tomorqa xo'jaliklari misolida o'rganilgan tadqiqot ishimizda, tomorqa yer egalari tomonidan "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" oila daromadining oshishiga ijobiy ta'sir etishi ilmiy asoslandi. "Innovatsiyalarni o'zlashtirish indeksi" bevosita tomorqa yer egalari tomonidan foydalanilgan innovatsiyalarni qanday o'zlashtirishini, umumiy xususiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan hosil bo'lgan indeksdir.



Makur indeksni oshirish bevosita tomorqa yer egalari va/yoki a'zolari bilimi, ularning savodxonlik darajasiga bo'g'liq. Bu borada, hukumat qishloq hududlarida, ayniqsa olis hududlarda agroxizmatlar markazini tashkil etish yoki mahallabay qishloq aholisi uchun tomorqa xo'jaligi faoliyatida qanday turdagi innovatsiyalar yoki innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uning resurs tejamkor imkoniyatlari borasida o'quv seminar-treninglar tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muratov, S. (2022). The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region. *American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology*, 6(3), 135-141.
2. Babakholov, S., Bobojonov, I., Hasanov, S., & Glauben, T. (2022). An empirical assessment of the interactive impacts of irrigation and climate on farm productivity in Samarkand region, Uzbekistan. *Environmental Challenges*, 7, 100502.
3. Pardaev, K., Hasanov, S., Muratov, S., & Saydullaeva, F. (2023). Mitigating impact of risks on economic integration between entities in agrifood supply chain. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 04002). EDP Sciences.
4. Myrator, Ш. (2022). The economic assessment of resources and services affecting tomorka (small households) farm in rural areas and their income. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(1), 317-324.
5. Hasanov, Sh., & Muratov, Sh. (2023). Tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadga innovatsiyalar ta'sirini iqtisodiy baholash // *THE INNOVATION ECONOMY*, 1(01), 132-144.
6. Saydullaeva, F., Hasanov, S., Pardaev, K., & Muratov, S. (2023). Dietary diversity for ensuring food security. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 01003). EDP Sciences.
7. Nurullayev, U. U., & Urazov, J. S. (2023). Agrar sohada tahsil olayotgan talabalarning o 'rtacha o 'zlashtirish ko 'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 292-298.
8. Muratov, S., Hasanov, S., Kalandarov, R., Pardaev, K., & Saydullayeva, F. Bibliography the Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region // *O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*, 135.
9. Pardaev, K. A. (2022). Risk Mitigation Strategies in the Tomato Supply Chain. *American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology*, 6(3), 118-123.
10. Muratov, S. (2023). The Role Of Innovation In Increasing Tomorka Farm Incomes. *Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory*, 1(5), 84-91.
11. Toxirovna S. G. Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply // *Academic Journal of Digital Economics and Stability*. – 2021. – T. 6. – C. 1-5.
12. Muratov, S. A. (2021). Economic Assessment Of Factors Affecting The Decision Of Households To Engage In Non-Farm Activities // *Irrigation and Melioration*, 2021(2), 38-43.
13. Muratov, S., Hasanov, S., Kalandarov, R., Pardaev, K., & Saydullayeva, F. Bibliography The Role Of Innovations In The Activities Of Tomorka Farms In Samarkand Region // *O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*, 135.
14. Kaiser, Henry F 1974. An index of factorial simplicity. *Psychometrika* 39: 31-36. doi: 10.1007/BF02291575
15. Bartlett, M. S. 1951. The effect of standardization on a Chi-square approximation in factor analysis. *Biometrika* 38: 337-344. doi: 10.1093/biomet/38.3-4.337
16. Acock, Alan C 2013. *Discovering structural equation modeling using Stata*. Stata Press Books.
17. Ike, P. C. (2015). Determinants of participation in non-farm economic activities in South East Nigeria: a tobit analysis approach. *Journal of Biology, Agriculture and Healthcare*, 5(2), 102-108.
18. Cai, L. A. (1998). Analyzing household food expenditure patterns on trips and vacations: a Tobit model. *Journal of Hospitality & Tourism Research*, 22(4), 338-358.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

